

O'ZBEKISTON TELEVIDENIYESIDA MAVZU TANLASH MAHORATI

Qallibekova Dinora

Qoraqolpoq Davlat Universiteti Jurnalistika fakulteti Juranlistika ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6985269>

Annotatsiya. *Telejurnalistikaning texnika bazasi siyosat va ijoddir. Aloqa vositasi sifatida televideniyeining ijtimoiy vazifasini bilish jamiyatda ommaviy jurnalist uchun o'zining ma'lum o'rnini egallashi, o'z kasbiy masalalarini, rolini belgilashi uchun imkon beradi. Jumladan ko'rsatuv yoki fil'm ijodiy guruhning mahsuloti ma'lum siyosiy, texnik va ijodiy talablarga javob berishi kerak. Ma'lum bir qonuniyatlar, prinsiplar, qoidalar professional jurnalist faoliyatini tashkil qiladi. Ularni tuzib hayotga tadbiiq etish oson emas. Telejurnalist bo'lish uchun avvalombor bor ma'lum bir qobiliyat va bilim bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ushbu kasb egasi bo'lish uchun uning nazariyasini, asoslarini bilish, o'rganish lozim. Uchinchidan, o'zi kuzatgan voqea hodisaga qarab vaziyatni to'g'ri baholash mahoratini egallamasdan turib ham jurnalist bo'lish qiyin.*

Kalit so'zlar: *televideniye, telejurnalist, Ozbekiston telekanali, tok shou, muallif, rejissyor, tasvir, matn.*

МАСТЕРСТВО ВЫБОРА ТЕМЫ В УЗБЕКСКОМ ТЕЛЕВИДЕНИИ

Аннотация. *Технической основой тележурналистики являются политика и творчество. Знание социальной функции телевидения как средства коммуникации позволяет публичному журналисту занять определенное место в обществе, определить свои профессиональные задачи и роль. В частности, продукт шоу- или кинотворческого коллектива должен соответствовать определенным политическим, техническим и творческим требованиям. Определенные законы, принципы и правила формируют деятельность профессионального журналиста. Сделать их и применить на практике непросто. Для того, чтобы стать тележурналистом, нужно сначала иметь определенные навыки и знания. Во-вторых, чтобы стать обладателем этой профессии, необходимо знать и изучать ее теорию и основы. В-третьих, трудно стать журналистом, не приобретя навык правильной оценки ситуации в зависимости от наблюдаемого им события.*

Ключевые слова: *телевидение, тележурналист, телеканал «Узбекистан», ток-шоу, автор, режиссер, образ, текст.*

THE SKILL OF CHOOSING A TOPIC ON UZBEK TELEVISION

Abstract. *The technical base of telejournalism is politics and creativity. Knowing the social function of television as a means of communication allows a public journalist to take a certain place in the society, define his professional issues and role. In particular, the product of a show or film creative team must meet certain political, technical and creative requirements. Certain laws, principles, and rules form the activity of a professional journalist. It is not easy to make them and put them into practice. In order to become a TV journalist, one must first have certain skills and knowledge. Secondly, in order to become the owner of this profession, it is necessary to know and study its theory and basics. Thirdly, it is difficult to become a journalist without acquiring the skill of correctly assessing the situation depending on the event that he observed.*

Keywords: *television, TV journalist, Uzbekistan TV channel, talk show, author, director, image, text.*

KIRISH

Televideniye, boshqa barcha ommaviy axborot vositalari qatorida, inson uchun osonroq idrok etishi mumkin bo'lgan ommaviy aloqa vositasidir. Chunki gazeta o'qish yoki radio tinglash bilan solishtirganda, tasvir orqali inson kamroq aqliy kuch sarflaydi. Masalan, televideniye va telejurnalistika faoliyatida tasvir, taxlil va tasir kuchiga ega bo'lsagina ko'zlangan natijaga ega bo'ladi. Telejurnalistikaning texnika bazasi siyosat va ijoddir. Aloqa vositasi sifatida televideniyaning ijtimoiy vazifasini bilish jamiyatda ommaviy jurnalist uchun o'zining ma'lum o'rnini egallashi, o'z kasbiy masalalarini, rolini belgilashi uchun imkon beradi. Jumladan ko'rsatuv yoki fil'm ijodiy guruhning mahsuloti ma'lum siyosiy, texnik va ijodiy talablarga javob berishi kerak. Ma'lum bir qonuniyatla, prinsiplar, qoidalar professional jurnalist faoliyatini tashkil qiladi. Ularni tuzib hayotga tadbiiq etish oson emas. Telejurnalist bo'lish uchun avvalombor ma'lum bir qobiliyat va bilim bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ushbu kasb egasi bo'lish uchun uning nazariyasini, asoslarini bilish, o'rganish lozim. Uchinchidan, o'zi kuzatgan voqea hodisaga qarab vaziyatni to'g'ri baholash mahoratini egallamasdan turib ham jurnalist bo'lish qiyin. So'z va tasvirning mosligi, ekran tasvir qonun qoidasi bilan ijro san'atining uyg'unlashuvi televizion ijodi samaradorligi garovidir. O'z imkoniyatlaridan foydalanishni o'rganishi uchun talaba telestudiyalarda o'taydigan amaliyotlarga ko'proq e'tibor berishi lozim. Teleko'rsatuv muvafaqqiyatida muallifning mahorati nimalardan iborat, tomoshabinbop dastur tayyorlash usullari qanday. Bu haqda talaba amaliy jarayonlarda ishtirok etib, tasvirga olish maydonlarida bo'lib tajriba oshiradi, malaka hosil qiladi. Har bir tasvirchi va jurnalistning dasturidagi ish faoliyatini rangli toshlardan bezalgan kartina jilolari bilan qiyoslash mumkin. Muallif har doim jurnalist bir auditoriyaning talabini hisobga olish lozim bo'lsa, ikkinchi tomonda teleko'rsatuv tayyorlovchi tashkilot tomonidan belgilangan maqsadlarga xizmat qilish zarur. Chunki ko'rsatuv beruvchi auditoriyaning faqatgina ko'ngil ochishini emas, balki unga axborot etkazish va ma'naviy yuksaltirish majburiyatini ham oladi. Shu jumladan Markaziy Osiyo telejurnalistikasi ham milliy mentalitetdan chetga chiqmagan holda ko'rsatuvlar tayyorlanadi. Ko'rsatuvlarda deyarli har bir xalqning yashash turmushi, urf-odati, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, diniy e'tiqodi nazardan chetga chiqmagan holda ko'rsatuv tayyorlashda ahamiyat beriladi. Evropa ommaviy axborot vositalari instituti olimlari 1990-yili shu qarorga keldilarki, "Ko'rsatuv bu-milliy boyluk, butun aholi uchun yagona tarbiya va muloqat vositasi bo'lib, ba'zi bir guruhlar qo'lida bo'lmasdan jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi kishilar nazorati ostidagi muassasa bo'lishi kerak".

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Televideniye ommaviy axborot vositasigina bo'lib qolmay, balki ijodning bir turi hamdir. Ijodning har bir turi o'ziga xos badiiy unsurga ega bo'ladiki, u ijodkor o'z g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun ishlatiladigan texnik usullar va tasviriy ifoda vositalari yig'indisidan iboratdir. Ijodkorning mahoratini faqatgina ijodning texnik tomoniga bog'lash xato bo'lar edi, ammo muallif g'oyasi ta'sirchan, aniq va chuqur aks ettirilishi ko'p jihatdan uning ifoda vositalaridan foydalana bilish darajasiga bog'liqdir. Ko'rsatuv tayyorlashda muallif oldin mavzuni aniq va dolzarbligiga e'tiborini qaratishi kerak. U ko'tarayotgan muammo yoki maqsadni auditoriya qanday qabul qiladi. Ikkinchidan ko'rsatuv mazmun mohiyatiga mos ob'ekt tanlash, ya'ni tasvirga oliy maydon va albatta, bu jarayonda ishtirok etadigan qahramonlarni saralab o'rganib chiqishi juda muhim. Buni uzoq yillar muhlislar mehrini qozonib kelgan "Ozbekiston" milliy telekanalining "Oydin Hayot" tok shousi misolida tahlil etib ko'rishimiz

mumkin. Mazkur ko`rsatuv ilk marotaba 2004-yil efir yuzini ko`rgan. Ko`rsatuvning ilk boshlovchilari xalqimiz ardagi`dagi suhandon va aktyor Rixsitilla Abdullayav va Aziza Rasulova boshchiligidagi tomoshabinlar e`tiboriga xavola qilingan. Ko`rsatuvning dastlabki sonlarida ona tabiatimiz inom etgan giyohlarning xalq tabobatida qo`llanishi, tarkibi, foydali va zararli tomonlari, kundalik hayotimizda iste`mol qiladigan meva sabzavotlar, dukkakli maxsulotlarning inson salomatligi uchun muhimligi haqida mutahassis ko`magida yoritib berilgan. Uning bugungi kundagi suhandonlari G.Toshmatova, Ohunjon Ibodov, Shuhrat Rahmatjonov, Barno Ilhomova, muallif Dilnoza Davronova va kadr ortidagi ijodkorlarning rang barang ijod mahsullari bugungi kunda muhlislar e`tiboridir. 18-yillik tomoshabinlar e`tiborida. Mazkur ko`rsatuv rang barang va ko`lami kengligi bilan boshqa ko`rsatuvlardan tubdan farq qiladi. Chunki "Oydin hayot" tok shousi orqali kundalik hayotimizda uchrab turadigan barcha mavzular ko`tariladi, taxlil qilinadi, kerakli tafsiyalar beriladi. Jonli efirmidagi ko`rsatuvning sport va salomatlik, psixologiya va pedagogika, sahna fidoyilari, o`zbek san`ati durdonalari, ijodkor yozuvchi va shoirlarning tashrifi kabi sahifalari tomoshabinlar tomonidan qiziqish bilan kuzatib ham savol orqali jonli muloqot olib boriladi. Bundan tashqari uy bekalariga sog`liq uchun foydali taom tayyorlash, mavsumiy imidjni yaratish va kiyinish madaniyati, oilada farzand tarbiyasida onalarga tafsiyalar, va go`zallik kabi saxifalar ko`rsatuvning tomoshabinlar bilan yanada yaqinlashtiradi. Chunki ko`rsatuv ko`proq tomoshabinlardan kelgan maktublar bilan soha mutahassislarining tafsiyalariga tayangan xolda tayyorlanadi. Mazkur ko`rsatuvlarning ko`p bora tasvirga olish jarayonlarida o`zim ham ishtirok etganman. Ko`rsatuv mavzusini tanlash va yoritib berishda studiyada imkoniyatlar kengdir. "Oydin hayot" ko`rsatuvining pavilonida suhbat uchun kerakli joy, oshxona, sport maydonchalari ko`rsatuvning jonli va qiziqarli tashkillanishi uchun xizmat qiladi. Ko`rsatuv muallifi Gulnoza Davronovaning eng birinchi mahorat sirlari – qiziqarli dolzarb mavzu tanlash, mavzuni ochib beradigan qahramonlar jamoasini yig`ish, mavzuni yoritib berishda mahoratli boshlovchilarni jalb qilish va jonli efirmidagi yutuqlari ko`rsatuvning umri boqiy bo`lishiga sababchidir. Mazkur tok shou ko`lami kengligi, rang barangligi va ommabopligi bilan boshqa ko`rsatuvlardan tubdan farq qiladi. Chunki xalqimizni qiziqtirgan muammolarni yechimini topishda ayni muddao. Masalan: 2019-yilda butun dunyoni o`z iskanjasiga olgan korona virusni yurtimizga kirib kelishi butun xalqimizni og`ir iztirobga soldi. Jumladan echimini topmagan tojkor virusning uy sharoitida qay tariqa davolash, kasallangan bemorga kerakli tafsiyalar berish bo`yicha eng tajribali shifokorlar jalb qilinib kerakli maslahatlar berildi. Chunki karantin cheklovlarini qo`llayabgan davrda kasallikning avj olib ketishi, bemorlar o`zini izolyatsiya qilib uy sharoitida davolanishi, shifokorlar maslahatiga muhtoj bir paytda "Oydin Hayot" tok shousi ijodkorlari tayanch vazifasini bajardi. Chunki kasallikning eng avjiga chiqqan karantin davrida ko`rsatuv ijodkorlari sog`lig`ini xavf ostiga qo`yib, xalqimiz sihat salomatligi yo`lida kamarbasta bo`lishdi. Ushbu ko`rsatuv mamlakatimiz telekanallardagi ko`rsatuvlaridan eng umir boqiy ko`rsatuvlar sirasiga kiritsak bo`ladi. Chunki tok shouning yutug`i mahoratli kadrlar va jamoaning hamjihatligidandir.

Baholanki tok shou boshlovchisi aqlli, kutulmagan noqulay, qaltis vaziyatlardan tez va muvaffaqiyatli, g`alaba bilan chiqib keta olishi, so`zga chechan, hazil mutoyibaga moyil bo`lishi, tinglovchini o`ziga rom eta olishi studiyada yig`ilganlar o`rtasida engil harakat qilishi va favqulodda xolatlarda o`zini yo`qotmay vaziyatdan uddaburonlik bilan chiqishi joizdir. Bunga misol tariqasida ko`rsatuvning 2019-yil 27- mart sonida jonli efir vaqtida favqulodda yer silkinish sodir bo`ldi. Bu holat studiyada ham sezildi. Ushbu kutilmagan xolatda ko`rsatuvga

tashrif buyurgan mutahassisga tomoshabinlar yoʻllagan maktublarni oʻqiyabgan journalist Gulruh Toshmatova vaziyatni sezdirmagani xolatda chiqib ketdi. Bunday xolatda jurnalistning ruhiy xolatini bir maromda ushlab turishi ham katta mahorat talab qilinadi. Mahoratli telejurnalist kutilmagan xolatda uddaburonlik bilan vaziyatdan chiqib ketishga muvaffaq boʻlgan. Hafta davomida muhulslar eʼtiborida boʻlgan koʻrsatuvning yana bir mahoratli boshlovchisi ham psixolog Barno Ilhomova faoliyati ham taxsinga sazovordir. Chunki shiddat bilan rivojlanish davrida barcha yoshdagi insonlarning ruhiy xolatida salbiy oʻzgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan endigina oyoqqa turyabgan bolakaydan, to yoshi bir joyga borib qolgan keksa nuroniylarimiz uchun ham ruhiy quvvat va energiyaga muhtojlik seziladi. Koʻrsatuv davomida barcha yoshdagi insonlarning ruhiyatidagi oʻzgarishlar, muammoning kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari haqida studiyadagi imkoniyat va qulayliklardan foydalanib yoritib beradi. Bunday tafsiiyalar biz kabi koʻplab insonlarning hayotni yanada sevish, borliqni boricha qabul qilish, vaqtda oʻzimizni ragʻbatlantirish, atrofimizdagi insonlarga mehr muhabbat va eʼtiborli boʻlish, shaxsni rivojlantirish, energiya hosil qilish boʻyicha muhim boʻlgan kerakli tafsiiyalar koʻplab tomoshabinlarning eʼtirofiga sazovor boʻlmoqda. Koʻrsatuvning muhim boʻlgan yana bir jihatida mavzu tanlashda tomoshabinlardan kelgan maktublar, murojatlar asosida tayyorlanadi. Jonli eʼfirda telefon aloqa tarmogʻi orqali xalqimizni muammolari, yechimini topishda mutahassislar taklif etilib kerakli tafsiiyalar beriladi. Masalan koʻrsatuvning 23-mart kuni berilgan sonida 3 oygacha boʻlgan bolaning salomatligida nimalarga eʼtibor qaratilishi, yangi tugʻilgan chaqaloqlarda ichak faoliyidagi oʻzgarishlar, bolani 6 oygacha ona suti bilan oziqlantirish, raxit kasalligi, bolani notoʻgʻri yotqizish orqali koʻzida va tayanch harakatidagi notoʻgʻri rivojlanish kuzatilishi sabablari va etiborsizlik oqibatlari nimaga olib kelishi haqida bolalar shifokori Dilshod Tursunov kerarli maslahatlar berildi. Tomoshabinlar tomonidan berilgan savollarga mutahassis tomonidan tafsiiyalar berildi. Ushbu koʻrsatuvning ommabopligi ham shunda.

TADQIQOT NATIJALARI

Koʻrsatuvning muvafaqqiyatida soʻz sanʼatining oʻz oʻrnida qoʻllanishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki soʻz ekran uchun muhimdir. Soʻz ekrandagi tasvirni qabul qilishni osonlashtiradi, qabulni chuqurlashtiradi, kadrning chegaralarini kengaytiradi, tomoshabinni quvontiradi, yoki oʻylantiradi. Shuning uchun ham muallif qanday soʻz ishlatishni bilishi lozim. Koʻrsatuv uchun yozilgan jumlar, bosma nashrlar yoki radioeshittirish uchun yozilgan jumladan tubdan farq qiladi. U yengil, mazmundor, ommabop boʻlishi juda muhim. Masalan, Gulruh Toshmatova: Assalomu aleykum! “Hayot gʻayratli mehnat tufayli jonli va goʻzaldir. U ogʻir yuk emas, balki qanot, ijod va quvonchdir. Agar kimda kim uni ogʻir yukka aylantirsa, bunga uning oʻzi aybdordir,” degan ekan donishmandlardan biri.” deya boshlashini oʻzida tomoshabinlar diqqatini tortib oladi. Bunda muallifning boshlovchilik mahorati ham muhim rol oʻynaydi. Soʻz va tasvirning mosligi esa ayditoriyani oʻziga jalb etishda asosiy omil hisoblanadi.

MUHOKAMA

“Oydin Hayot” tok shousi ijodkorlari viloyat boʻylab ham safarlar uyushtiradi. Bunga misol tariqasida tariximizni oʻzida joylagan Surxondaryo viloyatiga ham tashrifi qiziqarli kechdi. Koʻrsatuvning ushbu sonida Surxon elining oʻziga xos, milliy urf odatlari, tarixi, milliy liboslaridagi kashtachilik sanʼatining sir asrorlari, milliy taomlari, chanqavuz, milliy etnografik laparlar, raqslaridagi oʻziga xos joʻshqinlik barchasi koʻrsatuvning ketma ket sonlarida yoritilib berildi. Masalan Surxonning “samangan” folklor etnografik ansambli laparchisi Fotima

Xolboyeva mamolarimizning meros qadimiy hunarmandchiligi sanalgan paxtadan ip igrishni ko'rsatib berdi. Suhbat jarayoniga xalqimizning buyuk qadriyatlarini, hunarmandchilikning sir asrorlari, qo'l mehnatining qadr qimmatini haqida batafsil yoritib berdi. Dastur davomida telejurnalist Shuhrat Raxmatjonov va Gulruh Toshmatova jarayonga kirishib mavzuni to'laligicha yoritishda turli savollar bilan murojat qilib mavzuni ochib berishga intilgan. Aslida suhbatning tahliliy janr sifatidagi hususiyati boshlovchi va qahramon muloqot asosida shaxs meni tahlil etiladi. Intervyu va suhbatning umumiy va o'ziga xos jihatlari shundaki, suhbatda jurnalist o'z savollariga javob oladi. Buning uchun esa suhbatda bahsga kirishishning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Baxslashishning ham o'z odobi bor. Suhbatdoshning javoblarini sharhlash. Intervyu va suhbatda mavzuning aniq qo'yilishi. Shu bosqichlar jamlanmasida muallif tashkilotchilik mahorati ham namoyon bo'ladi. Televizion ijodiy guruhning har bir a'zosi umumiy ishning muhim prinsiplarini amalga oshirishda muallif sifatida to'g'ri yo'nalish bera olganligi.

Bu ham muallifning ko'rsatuv montaj qilmasdan oldin tasvirga olish ob'ektiga jam eta olganligi. Bu ham muallifning ko'rsatuvni montaj qilmasdan oldin tasvirga olish jarayonini o'zida tasavur eta olganligi. Ya'ni muallif ijodiy ish jarayonida xuddi matematik hisob kitob kabi har bir sahifani, so'zni, kadri oldindan ishlab chiqishi lozim. Aks holda vaqt yo'qotadi. Montaj stoliga o'tirganda masalliq etishmasligi seziladi. Shuning uchun ham puxta reja, senariy asosida tasvirga olish ishlarini amalga oshirishi shart. Bu borada "Oydin Hayot" tok shousi ijodkorlari faoliyatida uddaburonlik, tadbirkorlik, suhandonlik, improvizatsiyaga moyillik, vaziyatdan unumli foydalana olish kabi muhim sifatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Hulosa qiladigan bo'lsak, muallif mahorati shundaki, ommaviy ko'ngilochar teleko'rsatuv zahirida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda o'z muhlislariga boy material taqdim eta olgan. Birinchidan muallif ko'rsatuvning o'ziga xos imijini yaratdi. Dastur nomidan toki sahiflarigacha, yakuniy xulosalariga turfa xil mavzular rang barangligi, mavzu atrofida zanjirsimon uyg'unlikni topa oldi. Yuksak darajadagi muallif, boshqaruv qobiliyatini egallagan holda efirga uzatiladigan har bir holatga javobgarlikning o'zida his qilmog'I, televideniyaedagi muhim va munozarali savollar yuzaga keltirgan ziddiyatli vaziyatlarning yechimini topmog'I lozim. Bu jihatdan muallif har qanday holatda ham o'z kasbiga, ishlayotgan jamoasiga bo'lgan sodiqligini saqlab qoladigan, ma'suliyatni teran his qiladigan ijodiy guruhni jam etib, ular bilan bog'lanib ishlamoq'I, manba to'plashni tashkil qilmog'I maqul. Shunday qilib, telemuharrirlik-bu faqat adabiy yondashuv bilan ishlash emas, turli tuman axborotlarni ekranga olib chiqishda ularning shakli shamoyiliga jilo beruvchi tashkilotchi hamdir. Bunda ijodiy guruhdagi tasvirchi, chiroqchi, rejissyor imkoniyati, qobiliyatini oldindan his eta bilishi muhim.

Aytaylik bir operator umumiy planlarga yaxshi ishlaydi. Agar mana shu jihatlar rejissyor bilan maslahatlashgan holda tashkil etilmasa, ko'rsatuvni oldiga qo'ygan maqsad amalga oshmaydi. Dastur uchun muhim bo'lgan funksiyalar doimo muallif nazoratida bo'lishi zarur. Aks holda, montaj stoliga o'tirganda juda ko'p muammolar kelib chiqadi. Agar material, manba kam yoki muhim material olinmasa, montaj jarayonida dastur oldiga qo'ygan maqsadi amalga oshmay qoladi. Ana shunday damda asosiy ma'suliyat muallif zimmasida bo'ladi. Muharrirlik mahorati jurnalistika fakultetida ta'lim berish jarayonida asosiy kurs sifatida tanishtirib boriladi. Shu o'rinda takidlash lozimki televideniyaedagi muharrirlik rubrika rejalarini tuzishda boshlanib (bu ko'proq prodyuserlik vazifasiga yaqin) to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuv yoki videomateriallariga mos rubrika ishlarini boshqarish bilan yakunlanadi.

Televideniye adabiy sohadagi ishlar faqat soʻz ustida ishlash emas, balki qanday koʻrsatuvni efirga olib chiqishdan qatʼiy nazar tomoshabin jalb etadigan kadrlar haqida ham qaygʻuriladi. “Oydin hayot” koʻrsatuvida aynan eng noyob kadrlar jamlanmasi butun tomosha davomida kerakli oʻrinlarda berib borilardi. Tomoshabin qahramonlarni ichki olamini ochib beradigan kutilmagan noyob kadrlar uchun ham koʻrishardi. Bu rejissyorning mahorati deyishingiz mumkin. Ammo aynan muallif sifatida Gulnoza Davronova kadrlar masalasida ham oʻzi tashkilotchilikni boshqargan.

XULOSA

Xulosa qiladigan boʻlsak muallif –mavzu tanlashda ziyarak, ob`ekt tanlashda uddaburon, qahramon saralashda xushyor, ijodiy guruh bilan ishlashda psixolik bo`lishi zarur. Shundaginaa qo`ygan maqsadiga erisha oladi, o`z tomoshabiniga maroqli, mazmunli teledasturni taqdim eta oladi.

REFERENCES

1. Audiovizual jurnalistika .”O`zbekiston”nashriyoti 2019
2. Televideniye asoslari “Voris nashriyoti” 2009.
3. Ixtisoslashgan jurnalistika “O`zbekiston”2019
4. Рустамов Б. Н. ХОДИМЛАР БИЛИМИ ВА МАЛАКАСИНИ БАҲОЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ //Лучший инноватор в области науки. – 2022. – Т. №1. – С. 592-595.
5. Rustamov B. N. MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARINI TAHLIL QILISH VA TAQQOSLASH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №4. – С. 25-29.
6. Rustamov B. N. BigData: katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish tamoyillari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №4. – С. 178-182.
7. Вахтийор R. ORACLE МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИДА МАЪЛУМОТЛАРНИ ҚИДИРИШНИ ТЕЗЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
8. Рустамов Б. Н. МАЪЛУМОТЛАР БАЗАСИ ЖАДВАЛЛАРИДА КЎП СОНДАГИ МАЪЛУМОТЛАРНИ ҚИДИРИШНИ ТЕЗЛАШТИРИШНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А3. – С. 313-318.